

O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYA VA UNGA QARSHI SAMARALI KURASHISH UCHUN EHTIMOLLI YECHIMLAR

Qosimov Boburbek Hakimjon o'g'li

Andijon viloyat yuridik texnikumi Sud-huquqiy faoliyat 1-bosqich o'quvchisi

Abdurasulov Muhammadqodir

Andijon viloyat yuridik texnikumi o'qituvchisi 2-darajali adliya maslahatchisi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korruption holatlar, korruption statistika, vakolat suiiste'moli.

Annotatsiya

Mazkur maqola orqali muallif davlatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning aksariyatini tashkil etuvchi korruption jinoyatlar bo'yicha umummilliy statistikani o'rganib, mavjd muammoli holatlarga o'zining ehtimolli yechimlarini taqdim etgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Davlat - siyosiy institut. U ma'lum bir xalqning birlashuvi, maqsad va irodasidan kelib chiqib tuziladi. Davlatning asosi va negizi – bu xalqdir. Davlat xalq manfaatlariga xizmat qiladi, uning farovonligi va xavfsizligini ta'minlaydi. Davlat boshqaruvida xalq bevosita ishtirot etib, o'zi saylagan nomzod orqali mamlakatni idora qiladi. Boshqaruvning bunday demokratik shakli mamlakat rivojlanishi uchun katta hissa qo'shamdi, lekin bir yomon illat borki, millionlab odamlar birlashib tuzgan mamlakatni vayron etadi, rivojlanishni ortga suradi, ta'lim, tibbiyot va boshqa muhim sohalarni jar yoqasiga olib keladi. Bu – korrupsiya.

Korrupsiya – mansabdor shaxsning unga berilgan huquq va vakolatlardan o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, korrupsianing kelib chiqishi juda qadim zamonalarga borib taqaladi. Odamlar hali ibtidoiy jamoa tuzumida yashagan paytlarda ma'lum bir mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berilgan va bunga odatiy holat sifatida qaralgan. Keyinchalik boshqaruv apparati murakkablashuvi, davlatlar paydo bo'lishi bilan korrupsiya mamlakat rivojlanishida to'siq bo'ladigan eng yomon illatlardan biri sifatida qarala boshladi. Hozirgi kunda pora olish va berish deyarli barcha davlat qonunlarida qat'iyan taqiqlangan.

"Wikipedia" ma'lumotlariga ko'ra, Daniya, Finlandiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Singapur kabi mamlakatlar korrupsiyadan butkul holi, Somali, Suriya, Janubiy Sudan pora oldi-berdisi eng ko'p uchraydigan davlatlar hisoblanadi. Yuqorida nomi qayd etilgan Daniya, Finlandiya, Norvegiya, Singapur aholisi dunyo baxt indeksida birinchi o'ntalikni egallagan. Statistik ma'lumotlar bu davlatlarda yashovchi fuqarolarning turmush tarzi va yashash sharoiti yuqori ekanini ko'rsatadi. Somali, Suriya va Janubiy Sudan esa sayyoramizdag'i eng qashshoq mamlakatlar hisoblanadi. Shu o'rinda korrupsianing davlat rivojlanishiga, jamiyat farovonligiga qarshi qanchalik katta ta'sir o'tkazishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Korrupsion holatlar eng ko‘p uchraydigan mamlakatlar ro‘yxatida O‘zbekiston 180 ta davlat orasida 2021- yilda 140- o‘rinni, 2022-yilda 126- o‘rinni egalladi.

O‘zbekistonda 2016-yilda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Shuningdek, respublikada Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi ham faoliyat olib boradi.

Ushbu agentlik O‘zbekistondagi 62 ta davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligi 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholab, 12 ta tashkilot faoliyati samaradorligi “yaxshi” – (81-100 ball), 30 ta tashkilot “qoniqarli” – (55-80 ball) va 20 ta tashkilot “qoniqarsiz” – (55 balldan past) toifalarga ajratgani bo‘yicha ma’lumot berdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, Surxondaryo viloyati hokimligi 11 ball, Suv xo‘jaligi vazirligi 13 ball, Andijon viloyat hokimligi 18 ball va Energetika vazirligi 21 ball ko‘rsatkich bilan “Qoniqarsiz” toifada oxirgi o‘rinlarni; Soliq qo‘mitasi (93 ball), “Ipoteka bank” ATIB (93 ball), “O‘zbekiston sanoat qurilish banki” ATB (91 ball) “Yaxshi” toifada birinchi uchtalikni egallagan. 2020-yildagi hisob-kitoblarda esa, eng ko‘p “poraxo‘r” soha deb, Sog‘lijni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi hamda Qurilish vazirligi nomi keltirilgandi. Aksilkorrupsiya agentiligi bergen ma’lumotda Xalq ta’limi tizimida 78 milliard so‘m, Sog‘lijni saqlash vazirligida 16 milliard so‘mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangani aytilgandi.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. www.wikipediya.org veb-sayti;
2. www.president.uz veb-sayti;
3. www.anticorruption.uz veb-sayti